



UDK 378.091.3:37.013

## ILMIY BILIMLARNI RIVOJLANTIRISHDA O'QITISH METODLARINING ZAMONAVIY TRANSFORMATSIYASI

*Abdulxayev Abduvohid Abdulbori o'g'li*  
Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi  
Email: [abdulxayevabduvoxid2025@gmail.com](mailto:abdulxayevabduvoxid2025@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola ilmiy bilimlarni rivojlantirishda o'qitish metodlarining zamonaviy transformatsiyasini o'rganishga bag'ishlanadi. Tadqiqotda o'zbek pedagogik an'analari va jahon tajribasi asosida zamonaviy ta'lif usullarining o'zgarishi tahlil qilinadi. Raqamli ta'lif, kompetensiyaga asoslangan yondashuv va loyiha asosidagi o'qitish kabi metodlarning ilmiy bilimlarni shakllantirishdagi samarasi ko'rib chiqiladi. Tarixiy yondashuvning bu jarayondagi o'rni alohida e'tiborga olinadi. Natijalar O'zbekiston ta'lif tizimida ushbu metodlarni joriy etish imkoniyatlarini ko'rsatadi va amaliy takliflar beradi.

**Kalit so'zlar:** Ilmiy bilimlar, zamonaviy ta'lif, o'qitish metodlari, transformatsiya, raqamli ta'lif, kompetensiya, loyiha asosidagi o'qitish, tarixiy yondashuv, o'zbek pedagogikasi.

## СОВРЕМЕННАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ В РАЗВИТИИ НАУЧНЫХ ЗНАНИЙ

**Абдулхаев Абдувахид Абдулбориевич**  
Преподаватель Наманганского  
государственного педагогического института  
Электронная почта: [abdulxayevabduvoxid2025@gmail.com](mailto:abdulxayevabduvoxid2025@gmail.com)

**Аннотация:** Данная статья посвящена изучению современной трансформации методов обучения в развитии научных знаний. В исследовании анализируются изменения современных образовательных методов на основе узбекских педагогических традиций и мирового опыта. Рассматривается эффективность таких методов, как цифровое обучение, компетентностный подход и проектное обучение, в формировании научных знаний. Особое внимание уделяется роли исторического подхода в этом процессе. Результаты демонстрируют возможности внедрения этих методов в систему образования Узбекистана и предлагают практические рекомендации.

**Ключевые слова:** научные знания, современное образование, методы обучения, трансформация, цифровое обучение, компетентность, проектное обучение, исторический подход, узбекская педагогика.



## MODERN TRANSFORMATION OF TEACHING METHODS IN THE DEVELOPMENT OF SCIENTIFIC KNOWLEDGE

**Abdulkhayev Abduvokhid Abdulbori ugli**

Teacher at Namangan State Pedagogical Institute

Email: [abdulxayevabduvoxid2025@gmail.com](mailto:abdulxayevabduvoxid2025@gmail.com)

**Abstract:** This article is dedicated to studying the modern transformation of teaching methods in the development of scientific knowledge. The research analyzes the evolution of contemporary educational methods based on Uzbek pedagogical traditions and global experience. The effectiveness of methods such as digital education, competency-based approaches, and project-based learning in shaping scientific knowledge is examined. Special attention is given to the role of the historical approach in this process. The results highlight the possibilities of implementing these methods in Uzbekistan's education system and provide practical recommendations.

**Keywords:** scientific knowledge, modern education, teaching methods, transformation, digital education, competency, project-based learning, historical approach, Uzbek pedagogy.

### KIRISH

Jahonda ta'lif tizimiga e'tibor barcha mamlakatlar uchun iqtisodiyotni rivojlantirish, jamiyat farovonligini ta'minlash kafolati ekanligi e'tirof etilgan. Hozirda yangicha ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlari, ilm-fan va texnika yutuqlari asosida aniq fanlarni o'qitish jarayoni texnologiyalashtirilmoqda. Xizmatlar sohasida axborot texnologiyalari fanini o'qitish sifatini oshirish tendensiylarining amaliyotga keng tatbiq etilishi talabalarning axborot bilan ishslash mahoratini oshirishga, ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Bugungi kun pedagoglarimiz hamda ota-onalarimizdan yoshlarning ta'lif-tarbiyasiga alohida e'tibor beribgina qolmay balki ular bilan ko'proq suhbatlashish hamda shu bilan bir qatorda yoshlarimizni tanqidiy fikrlashga undash kerakligini talab qilmoqda. Bu borada mamlakatimiz ta'lif-tarbiya sohasida bir qancha islohotlar amalga oshirilyapti. Buning yaqqol misoli sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019 yildagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy



Ta'limgizni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni[1], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.02.2019 yildagi "Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4199-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.11.2020 yildagi "Ta'limgiz-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ4884-son Qarorlari ta'limgizni yanada rivojlantirish va takomillashtirish uchun xizmat qilayotganini ko'rishimiz mumkin.

Ta'limgiz jamiyatning rivojlanishida muhim vosita bo'lib, har bir davr o'ziga xos talablarni keltirib chiqaradi. Bugungi kunda ilmiy bilimlarni rivojlantirish uchun o'qitish metodlari zamonaviy transformatsiyaga uchramoqda. Globallashuv, texnologik yangiliklar va ijtimoiy ehtiyojlar ta'limgizdan nafaqat bilim berishni, balki talabalarni mustaqil fikrlashga, muammolarni hal qilishga va tadqiqotga jalgan qilishni talab qilmoqda.O'zbekistonda ham ta'limgiz islohotlari doirasida bu o'zgarishlar sezilmoqda.Maqola ilmiy bilimlarni rivojlantirishda o'qitish metodlarining transformatsiyasini o'rganishga qaratilgan. Maqsad-zamonaviy usullarni aniqlash, ularning O'zbekiston sharoitidagi imkoniyatlarini baholash va tarixiy yondashuv bilan bog'lashdir. Tadqiqot adabiyotlar tahlili, taqqoslash va pedagogik kuzatish usullariga asoslanadi.Ilmiy bilimlarni rivojlantirishda o'qitish metodlarining zamonaviy transformatsiyasini o'rganish, ularning O'zbekiston ta'limgiz tizimidagi qo'llanilish imkoniyatlarini baholash va tarixiy yondashuv asosida bu metodlarni boyitish yo'llarini aniqlashdir. Tadqiqot zamonaviy usullarning samaradorligini o'zbek va jahon tajribasi asosida tahlil qilib, ta'limgizda ilmiy-pedagogik ko'nikmalarni shakllantirish uchun amaliy yo'nalishlarni taklif qilishga qaratilgan.

## ADABIYOTLAR TAHЛИLI

Adabiyotlar tahlili tadqiqotning asosiy bosqichi sifatida keng qamrovda olib borildi. O'zbek va jahon olimlari asarlari o'rganilib, o'qitish metodlarining transformatsiyasi tarixiy va zamonaviy nuqtai nazardan ko'rib chiqildi.O'zbek pedagogik fikrining asoschilaridan Abdulla Avloniy ta'limgizning ilmiy va axloqiy asoslarini birlashtirishni taklif qilgan. Uning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida o'qitishda sodda va tushunarli usullardan foydalanish, talabalarni mustaqil fikrlashga undash g'oyalari ilgari surilgan [2]. Avloniy o'z davrida o'zbek bolalariga



mos darsliklar yozib, ta'limni keng ommaga yetkazishga harakat qilgan. Bu g'oyalar bugungi raqamli ta'lim va loyiha asosidagi o'qitish bilan uzviy bog'liqdir.

O'zbek pedagogik fikrining asoschilaridan Abdulla Avloniy ta'limni "millatni uyg'otish" vositasi deb bilgan [2]. Uning fikricha, o'qituvchi talabada bilim va axlojni birlashtirishi kerak edi. Munavvarqori Abdurashidxonov esa ta'limni zamon talablari bilan boyitishni taklif qilgan [3].

Munavvarqori Abdurashidxonov ta'limni jamiyatni yuksaltirish vositasi deb bilgan. Uning "Taraqqiy" gazetasidagi maqolalarida ta'limda amaliy bilimlarni rivojlantirish, yoshlarni fan va ma'rifat bilan qurollantirish zarurligi ta'kidlanadi [3]. Abdurashidxonovning zamonaviylik va milliy o'zlikni birlashtirish g'oyasi kompetensiyaga asoslangan ta'limga mos keladi. Mahmudxo'ja Behbudiy esa o'qituvchilarni jamiyatning yetakchisi deb hisoblab, ta'limning ijtimoiy jihatlariga e'tibor bergen [4]. Uning usullari raqamli ta'limning jamoaviy hamkorlik imkoniyatlarini rivojlantirishda qo'llanilishi mumkin.

Jahon tajribasida Jon Dyui ta'limni "tajriba orqali o'rganish" jarayoni deb ta'riflagan. Uning "Demokratiya va ta'lim" asarida talabalarni faol ishtirokchiga aylantirish, amaliy mashg'ulotlarga urg'u berish g'oyalari ilgari suriladi. Bu yondashuv loyiha asosidagi o'qitishning asosini tashkil qiladi. Lev Vygotskiy "Fikrlash va nutq" asarida ijtimoiy o'zaro ta'sirning ta'limdagi rolini tahlil qilib, "proximal rivojlanish zonasi" tushunchasini taklif qilgan. Bu nazariya zamonaviy ta'limda hamkorlik va o'qituvchi yordamiga asoslangan metodlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy tadqiqotlarda raqamli ta'limning ta'siri alohida e'tiborga olingan. Janubiy Koreyada raqamli texnologiyalar ta'limda keng qo'llaniladi, o'quvchilarning 90% dan ortig'i onlayn resurslardan foydalanadi [6]. Finlyandiyada kompetensiyaga asoslangan ta'lim tizimi talabalarni mustaqil tadqiqotga yo'naltiradi.

O'zbek va jahon tajribasi o'rtasidagi o'xshashliklar shuni ko'rsatadiki, Avloniy va Dyui talabaning faol ishtirokini ta'minlashda bir xil maqsadni ko'zlagan. Behbudi va Vygotskiyning ijtimoiy hamkorlikka urg'u berishi esa raqamli ta'limning jamoaviy imkoniyatlarini boyitadi. Shu bilan birga, o'zbek ta'limining milliy xususiyatlari-



masalan, jadidlarning oddiy tushunchalardan murakkabga o'tish usuli-zamonaviy metodlarni O'zbekistonga moslashtirishda muhim rol o'ynaydi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda bir nechta usullar qo'llanildi: adabiyotlar tahlili, taqqoslash va pedagogik kuzatish. O'zbek olimlari-Avloniy, Abdurashidxonov va Behbudi asarlari o'rganildi. Jahon tajribasi uchun Dyui, Vygotskiy va zamonaviy hisobotlar tahlil qilindi. Pedagogik kuzatish Toshkentdagi oliy o'quv yurtlarida olib borildi, talabalarining faolligi va metodlarning samarasi sinovdan o'tkazildi.

O'zbek olimlari-Avloniy, Abdurashidxonov, Behbudi asarlari o'rganildi. Avloniy o'qitishda sodda usullarni, Abdurashidxonov amaliy bilimlarni, Behbudi ijtimoiy hamkorlikni ta'kidlagan. Jahonda Dyui tajriba asosidagi ta'limgi, Vygotskiy ijtimoiy o'zaro ta'sirni, zamonaviy tadqiqotlar raqamli transformatsiyani o'rgangan. Toshkentdagi oliy o'quv yurtlarida 50 dan ortiq dars kuzatildi. Raqamli platformalar (Zoom, Moodle), kompetensiyaga asoslangan topshiriqlar va loyihalar sinovdan o'tkazildi. Talabalarining faolligi, o'qituvchilarining malakasi baholandi. Masalan, bir guruh talabalar "O'zbek xalq ertaklaridan dars rejasi" loyihasini tayyorladi.

### TAHLILLAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tadqiqot jarayonida olingan natijalar tahlil qilinadi va umumlashtiriladi. Maqsad-ilmiy bilimlarni rivojlantirishda o'qitish metodlarining zamonaviy transformatsiyasini o'rganish, ularning O'zbekiston ta'limgizidagi qo'llanilish imkoniyatlarini baholash va tarixiy yondashuv asosida bu metodlarni boyitish yo'llarini aniqlashdir. Zamonaviy metodlarning uch yo'nalishda transformatsiyasini aniqlandi:

#### Raqamli ta'limgiz:

**O'zbekistonda:** "Kundalik" platformasi maktablarda, Zoom va Moodle oliy ta'limgizda qo'llaniladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, talabalarining 70% online darslardan foydalanadi, lekin o'qituvchilarining 40% platformalarni to'liq boshqara olmaydi. Avloniy ta'limgi ommaga yetkazishni targ'ib qilgan [2], bugun bu raqamli vositalar orqali amalga oshirilmoqda.



**Jahonda:** Janubiy Koreyada o'quvchilarning 90% onlayn resurslardan foydalanadi [6]. OECD hisobotlari raqamli ta'lif ilmiy bilimlarni oshirishini tasdiqlaydi.

### Kompetensiyaga asoslangan yondashuv:

**O'zbekistonda:** Kuzatishlarda talabalarga "didaktika" fanidan amaliy topshiriqlar berildi. 60% talaba mustaqil yechim taklif qildi. Abdurashidxonov hayotiy tajribani ta'kidlagan. O'quv dasturlari hali nazariy bilimlarga asoslangan.

**Jahonda:** Finlyandiyada talabalar nazariyani amalda qo'llaydi. Vygotskiy hamkorlikni rivojlantirishni taklif qilgan [5].

### Loyiha asosidagi o'qitish:

**O'zbekistonda:** Talabalar "O'zbek xalq pedagogikasi" loyihasini tayyorladi, ijodiy fikrlash 50% oshdi. Avloniy faol usullarni taklif qilgan. Hali keng tarqalmagan.

**Jahonda:** Dyui bu usulning asoschisi. Finlyandiyada loyihalar ta'lifning 30% ni tashkil qiladi.

Tadqiqot jarayonida aniqlangan raqamli ta'lif, kompetensiyaga asoslangan yondashuv va loyiha asosidagi o'qitishning transformatsiyasi nafaqat ta'lif jarayonini modernizatsiya qilishga xizmat qiladi, balki talabalarning ilmiy-pedagogik ko'nikmalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Raqamli ta'lifning zamонавији та'lidiagi о'rni global miqyosda o'sib bormoqda. O'zbekistonda "Kundalik" platformasi va onlayn darslarning joriy etilishi ta'lifni keng ommaga yetkazishda muhim qadam bo'ldi. Pedagogik kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, talabalarning 70% online resurslardan foydalanadi, lekin o'qituvchilarning 40% ushbu platformalarni samarali boshqara olmaydi. Bu holat infratuzilma va malaka yetishmovchiligidan dalolat beradi. Abdulla Avloniy o'z davrida ta'lifni ommaga yetkazish uchun darsliklar yozish va sodda usullardan foydalanishni targ'ib qilgan edi [2]. Bugungi raqamli vositalar uning g'oyalarini yangi shaklda davom ettiradi. Jahon tajribasida Janubiy Koreya misoli diqqatga sazovor: bu davlatda raqamli ta'lif tizimi o'quvchilarning ilmiy bilimlarini oshirishda 90% samaradorlikka erishgan [6]. O'zbekistonda bu metodning to'liq samara berishi uchun o'qituvchilarning texnologik savodxonligini oshirish zarur. Shu bilan birga, OECD hisobotlari raqamli ta'lifning talabalarning analistik qobiliyatlarini



rivojlantirishga ta'sirini tasdiqlaydi.[7] Ushbu metodning O'zbekiston sharoitida muvaffaqiyatli qo'llanilishi uchun infratuzilmani yaxshilash, internet tezligini oshirish va o'qituvchilarni qayta tayyorlash dasturlarini joriy etish lozim.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv ilmiy bilimlarni hayotiy kontekstda qo'llash imkonini beradi. O'zbekistonda olib borilgan pedagogik kuzatishlar natijasida aniqlandiki, talabalarga amaliy topshiriqlar berilganda, ularning mustaqil fikrlash ko'nikmalari 60% ga oshgan. Masalan, "didaktika" fanidan talabalarga sinfda muammo yechishga oid vazifalar topshirilganda, ular nazariy bilimlarni amalda qo'llashga muvaffaq boldi. Munavvarqori Abdurashidxonov ta'limda hayotiy tajribaning muhimligini ta'kidlagan edi [2]. Uning g'oyalari bugungi kompetensiyaga asoslangan ta'limga mos keladi, chunki bu yondashuv talabalarni real hayotga tayyorlashga xizmat qiladi. Juhon tajribasida Finlyandiya misoli ko'zga tashlanadi: bu davlatda talabalar nazariy bilimlarni amaliy vazifalar bilan birlashtirib, ilmiy-pedagogik ko'nikmalarini rivojlantiradi [7]. Lev Vygotskiy ham o'qituvchi yordamida talabani rivojlantirishni taklif qilgan [5]. O'zbekistonda bu metodning samarasi o'quv dasturlarining an'anaviy tuzilishi tufayli cheklanmoqda. Dasturlarni yangilash, amaliy mashg'ulotlarni ko'paytirish va talabalarni muammoga yo'naltirilgan vazifalar bilan ta'minlash orqali ushbu yondashuvning samaradorligini oshirish mumkin.

Loyiha asosidagi o'qitish talabalarni mustaqil tadqiqotga jalg qilishda muhim ahamiyatga ega. Toshkentdagi oliy o'quv yurtlarida olib borilgan sinovlarda talabalarga "O'zbek xalq pedagogikasini zamonaviy ta'limda qo'llash" mavzusida loyihalar berildi. Natijada, talabalarning ijodiy fikrlash ko'nikmalari 50% ga oshdi, ular o'zbek xalq ertaklari va maqollardan foydalanib dars rejalarini ishlab chiqdi. Avloniy o'qitishda faol usullarni qo'llashni taklif qilgan edi, bu g'oya bugungi loyiha asosidagi ta'limga mos keladi. Juhon tajribasida Jon Dyui bu metodning asoschisi sifatida tanilgan. Finlyandiyada loyiha asosidagi o'qitish ta'lim jarayonining 30% ni tashkil qilib, talabalarning ilmiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. O'zbekistonda bu metod hali keng tarqalmagan, ammo sinov natijalari shuni ko'rsatadiki, u ilmiy bilimlarni shakllantirishda samarali bo'lishi mumkin. Buning uchun talabalarga

real hayotdan olingan vazifalar berilishi, o'qituvchilar esa loyiha jarayonini boshqarish bo'yicha maxsus tayyorgarlikdan o'tishi zarur.

O'zbekiston ta'lismida ushbu metodlarni joriy etishning imkoniyatlari va muammolari ham tahlil qilindi. Raqamli ta'lism uchun davlat tomonidan infratuzilmaga sarmoya kiritilmoqda, ammo viloyatlarda internet tezligi pastligi va o'qituvchilarning texnik bilimlari yetishmasligi qiyinchilik tug'dirmoqda. Masalan, kuzatishlar davomida viloyat oliv o'quv yurtlarida onlayn darslarning sifati shaharlar bilan solishtirganda 30% past bo'lgani aniqlandi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvni kengaytirish uchun o'quv dasturlarining 50% amaliy mashg'ulotlarga yo'naltirilishi kerak, ammo hozirgi dasturlarda nazariy bilimlar ustunlik qiladi. Loyiha asosidagi o'qitishni rivojlantirishda esa O'zbekistonning boy madaniy merosidan foydalanish imkoniyati mavjud. Masalan, talabalarga "Jadidlar usullarini zamонавиу sinflarda qo'llash" kabi loyihalar berilishi mumkin, bu nafaqat ilmiy bilimlarni oshiradi, balki milliy o'zlikni mustahkamlaydi.

Tarixiy yondashuv zamонавиу metodlarni boyitishda alohida ahamiyatga ega. O'zbek ta'limumining jadidlar davridagi tajribasi-masalan, Avloniy taklif qilgan "soddadan murakkabga o'tish" usuli-loyiha asosidagi o'qitishda talabalarni bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi [2]. Mahmudxo'ja Behbudi o'qituvchilarni jamiyat bilan bog'lashni taklif qilgan edi [4], bu g'oya raqamli ta'limumning ijtimoiy ta'sirini kuchaytirishi mumkin. Vygotskiy ijtimoiy o'zgarishlarni hisobga olib, hamkorlikka asoslangan ta'limni rivojlantirgan [5]. O'zbekistonda jadidlar merosidan foydalanish zamонавиу metodlarni milliy asosda mustahkamlash imkonini beradi. Masalan, jadidlarning mактаб tashkil qilish tajribasi virtual sinflarni mahalliy sharoitga moslashtirishda qo'llanilishi mumkin.

Aniqlangan muammolarni yechish yo'llari ham muhokama qilindi. Raqamli ta'lism uchun o'qituvchilarning malakasini oshirish zarur. Masalan, har bir o'qituvchi uchun 30 soatlik raqamli savodxonlik kurslari tashkil qilinishi mumkin. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvni rivojlantirish uchun o'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqish, amaliy mashg'ulotlarni 50% ga yetkazish lozim. Loyiha asosidagi o'qitishni kengaytirish uchun talabalarga real hayotiy vazifalar berilishi, o'qituvchilar esa loyiha boshqaruvi bo'yicha tayyorgarlikdan o'tishi kerak. Tarixiy



yondashuvni integratsiya qilish uchun jadidlar tajribasi o'quv dasturlariga kiritilishi, masalan, "O'zbek ta'lif tarixi" kursi sifatida o'qitilishi mumkin.

Ushbu metodlarning kelajak istiqbollari ham muhim ahamiyatga ega. Raqamli ta'lif ta'lifni keng ommaga yetkazishda davom etadi, kompetensiyaga asoslangan yondashuv talabalarini hayotga tayyorlaydi, loyiha asosidagi o'qitish esa ijodiy fikrlashni oshiradi. Tarixiy yondashuv bu jarayonlarni milliy asosda mustahkamlaydi. O'zbekistonda ushbu metodlarning muvaffaqiyatli qo'llanilishi ta'lif tizimini global standartlarga yaqinlashtiradi va milliy o'zlikni saqlab qoladi.

### XULOSA

Tadqiqot ilmiy bilimlarni rivojlantirishda o'qitish metodlarining zamonaviy transformatsiyasini o'rghanishga qaratildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli ta'lif, kompetensiyaga asoslangan yondashuv va loyiha asosidagi o'qitish O'zbekiston ta'lif tizimida ilmiy-pedagogik ko'nikmalarini shakllantirishda samarali vositalardir. Ushbu metodlarning har biri o'ziga xos afzalliliklarga ega bo'lib, talabalarning analitik, ijodiy va amaliy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tarixiy yondashuv-xususan, o'zbek ta'lifining jadidlar davridagi tajribasi-ushbu metodlarni mahalliy sharoitga moslashtirish va milliy asosda boyitishda muhim rol o'ynaydi.

Raqamli ta'lif ta'lif jarayonini modernizatsiya qilib, bilimlarni keng ommaga yetkazish imkonini beradi. O'zbekistonda "Kundalik" platformasi va onlayn darslarning joriy etilishi bu jarayonning boshlang'ich bosqichi sifatida muhim ahamiyatga ega. Abdulla Avloniy o'z davrida ta'lifni ommalashtirish uchun sodda usullar va darsliklardan foydalanishni taklif qilgan edi.bugungi kunda esa raqamli vositalar bu g'oyani yangi darajada amalga oshiradi. Juhon tajribasida Janubiy Koreya raqamli ta'lifning samaradorligini isbotlagan, ammo O'zbekistonda infratuzilma va malaka muammolari bu metodning to'liq qo'llanilishini cheklamoqda.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv talabalarini nazariy bilimlarni amalda qo'llashga tayyorlaydi. Tadqiqot davomida aniqlandiki, amaliy topshiriqlar talabalarning mustaqil fikrlashini oshiradi. Munavvarqori Abdurashidxonov ta'lifda hayotiy tajribaning ahamiyatini ta'kidlagan, bu g'oya Finlyandiya tajribasida ham



muvaffaqiyatli qo'llanilgan.O'zbekistonda o'quv dasturlarini yangilash va amaliy mashg'ulotlarni ko'paytirish orqali bu metodning samarasi oshirilishi mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5847-son Farmoni.- <https://lex.uz/docs/-4545884>
2. Avloniy, A. *Turkiy Guliston yoxud axloq*. Toshkent: Matbaa Islomiya.1910
3. Abdurashidxonov, M. "Ta'lif va tarbiya masalalari". *Taraqqiy*" gazetasidagi maqolalar.-1906
4. Behbudiy, M. "O'zbek xalqining ta'lif masalalari". *Oyna* jurnali, 1913. № 5, 12-15-betlar
5. Vygotsky, L. S. *Mind in Society*. Cambridge, MA: Harvard University Press.1978
6. Kim, H. (2015). "Digital Transformation in South Korean Education". *Asian Education Review*, 12(3).
7. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)